

## Boshlang'ich Sinf O'quvchilarining Ijodiy Faoliyatini Rivojlantirish Metodikasi (Tabiiy Fan Misolida)

*Baltamuratova Aksungul Perdebaevna<sup>1</sup>, Jurgunova Nozima Sherzod qizi<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tabiiy fanlarning o'rni va ahamiyati haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Boshlang'ich sinflarda tabiat to'g'risidagi bilimlarini jonli va jonsiz tabiat, jismlar va hodisalar, o'simlik va hayvonlar, yilning har xil fasllaridagi tabiat o'zgarishidagi tasavvur va tushunchalar hamda o'quvchilarga tabiiy fanlarni ilmiy bilimlar asosida o'qitish haqida so'z yuritiladi.

Tabiiy fanlar mifiktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda turli qiziqarli o'yinlar asosida va samarali o'qitish metodlaridan foydalanib dars berish muhim sanaladi. Ushbu maqolada tabiiy fanlar fanini o'qitishda ko'mak beruvchi zamonaviy o'qitish metodlari haqida bat afsil ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** jonli tabiat, jonsiz tabiat, ekologik tarbiya, ekologiya, tabiat, o'simlik, hayvonlar, ta'lim, tarbiya, "mediata'lim", "metodlar", "ta'lim texnologiyalari", "multimedia vositalari".

### Kirish:

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degan da'vatlari ta'limning sifatlari va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi<sup>2</sup>.

Hozirgi yoshlar o'z xalqining jonkuyari bo'lishi, milliy qadriyatlarimizni chuqur bilgan, o'zlashtirgan, ularni qadrlaydigan bo'lishi kerak. Asrlar davomida ajqdodlarimizning aqlu-zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida yetakchi omildir. Shunday ekan, hozirgi zamon kishisi, xususan, yosh avlodning milliy tushunchasini, ongini boyitib borish katta ahamiyatga ega. Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy boyliklar xalqimiz tomonidan ko'z qorachig'idek saqlanmoqda va o'rganilmoqda.

Bugungi zamonaviy umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisining ma'lumot hozirda axborot asrida yashayapmiz. Shu sababli ham og'zaki ma'lumotlarga qaraganda ko'proq vizual ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz. Aksariyat odamlar uchun televizor asosiy axborot manbai hisoblanadi. Vizul tasvirlar esa, jurnallar va gazetalarda muhim rol o'ynaydi. Natijada esa olingan bilimlarning ko'proq qismi maktabdan tashqari bilimlarga, ma'lumotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda deyishimiz mumkin. Ko'p holatlarda esa maktabdan tashqari olingan bilimlarni yoki informatsiyalarni aniq va ilmiy deb qarab bo'lmaydi.

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasи katta o'qituvchisi

<sup>2</sup> Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

<sup>2</sup> SH. M. Mirziyoyev. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019 yil 22 oktyabr. – № 218. – B.



Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonidagi bilimlar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, ilmiy fikrlash metodini yaratishga imkon beradi. Ko‘pchilik olimlarning ilmiy izlanishlari tufayli so‘nggi yillar ichida ilmiy nazariya tuzilishiga asoslangan fanning tarkibiy qismlarini tizimli ravishda aks ettirishning muhim usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning tabiiy fanlar ta’limi mazmunini takomillashtirishga bo‘lgan xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har qanday o‘quv fanini, shu jumladan, tabiiy fanlarni o‘qitishni tashkil etish muhim. Tizimni yaratishning muhim xususiyati bu tizimning har bir elementini to‘liq va mazmunli taqdim etish hisoblanadi. Tizimni yaratishning muhim xususiyati bu tizimning har bir elementini to‘liq va mazmunli taqdim etish hisoblanadi.

### **Asosiy qism:**

Tabiatshunoslik tushunchalarini o‘zlashtirishda predmetlararo; nutqni rivojlantirish, o‘qish, matematika, ona tili, musiqa, ashulla, mehnat ta’limi, rasm fanlari bilan aloqa o‘rnatalishi muhim ahamiyatga ega. Predmetlararo aloqadan tizimli ravishda foydalanish bolalarni ilgari olingan bilimlarni qo‘llashiga, o‘quv faoliyatlarining barcha turlarida mantiqiy bog‘lanish o‘rnatishga o‘rgatadi. Tabiatshunsolik fanini o‘qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga bolalarni o‘qitishni to‘g‘ri tashkil qilish imkonini beradi.

Tabiatshunoslik fanining mazmunini o‘chib berishda xilma xil o‘qitish metodlaridan foydalanish va bu fanga turlicha yondashish mumkin. U yoki bu metodni tanlashda o‘qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, bu tanlagen metod rivojlantiruvchi ta’limning vazifalarini ta’minalash orqali, o‘quvchilarning bilish foaliyatini faollashtirsin va o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o‘zlashtirilayotganligini tez va aniq ko‘rsatib bersa maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

Shunga ko‘ra tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar, suhbatlar, hissiyotni qo‘zg‘atuvchi hikoyalar, ayniqsa, mustaqil ishlardan ko‘proq foydalanish kerak, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo‘lmagan tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, tabiat ishlarining majburiy tarkibiy qismlari bo‘lishi lozim.

Tabiiy fanlar o‘quvchilarni, insonning tabiatga ta’sirini va tabiat boyliklarini avaylab - asrashni o‘rgatadi.

Tabiiy fan tushunchasini samarali o‘zlashtirishni ta’minlovchi metod bu tabiatni kuzatish metodi hisoblanadi. Kuzatishlar xulosasiga ko‘ra, o‘simplik, hayvon yoki biror hodisa haqida o‘quvchida aniq tasavvurlar hosil bo‘ladi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida dunyonи ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini, vatanparvarlikni va go‘zallikni tushunishni tarbiyalash kerak.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalilanadi.

Hozirgi kunda o‘quvchilarga zamonaviy bilim berishda ularning ijodiy faolligi, individual qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Tabiatshunoslik bo‘yicha mashg‘ulotlarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o‘yinlar, o‘lkashunoslik sayyohatlari, yurishlar bilan chambarchas bog‘lamoq zarur. Tabiatshunoslik darslari — bu mehnat tarbiyasi maktabi hamdir. Aniq misollarda o‘quvchilarni odam mehnati — uning jismoniy va ma‘naviy sihatligining manbai ekanligiga ishontirib, o‘qituvchi mehnatga muhabbatni, astoydil mehnat qilish istagini, mehnat ahliga hurmatini tarbiyalaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sinfda muktab xodimlarining mehnatiga hurmat, muktabning yer maydonchasidagi ishlarda qarashish, 2-sinfda esa kun tartibidagi mehnatning turlari, muktab mulkiga ehtiyyotlik munosabati, xona o‘simpliklarini parvarish qilish, qurilishlarda, zavod va fabrikalarda ishlovchi odamlarning kasblari bilan tanishish, 3-sinfda esa tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish, odamlar mehnatini qadrlash, mehnat va dam olish tartibini o‘rganish, dalada, polizda odamlar mehnatini kuzatish, 4- sinfda esa cho‘llarda, dashtlarda, o‘rmonlarda, tog‘larda, adirlarda odamlar mehnati bilan tanishish, yer osti boyliklari, suv, havo, o‘simpliklar, hayvonlarni muhofaza qilish mavzulari bilan tanishadilar.



Tabiatshunoslik o‘zining mazmuni va metodlari bilan o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega.

Tabiat — dunyo fani va shuning uchun ham tabiatshunoslik darslari o‘quv materiali mazmunini yetkazishning o‘ylab chiqilgan metodikasini talab qiladi, uning asosiy maqsadi bilimlar yig‘indisini faqat esda qoldirish bo‘lib qolmasdan, balki ularni ishonchga aylantirish hamdir. Ishonch insonlarga, atrof olamga bo‘lgan munosabatda, odatlarda, ish tutishda, xulqatvorda namoyon bo‘lishi kerak. Bilish muayyan voqeа, hodisa, jarayon yoki predmetning mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan faoliyat samarasi sanaladi. Qiziqish esa ana shu yo‘lda olib borilayotgan faoliyatning samaradorligini ta’minlovchi omildir. Tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish ana shu maqsadda olib borilayotgan murakkab pedagogik faoliyat natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dasturlashtirilgan o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv materialini qo‘llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o‘qitish jarayonini individuallashtirish imkoni paydo bo‘ladi, texnik vositali o‘qitish keng qo‘llaniladi, o‘qitish va o‘quvchi mehnatini oqilonqa tashkil etishga erishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o‘quvchilarning og‘zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqlar bilan yozma ravishda. Ularning afzal jihat shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o‘quvchining o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlay oladi. Tajriba atrof olam bilan tanishish darslarida bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o‘qitish usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatadi. Bu usullarning afzalligi shundaki, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini o‘quvchilarning o‘zlarini shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin. 2 - sinfda dasturlashtirilgan o‘qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Grafik topshiriqlarini bajarayotganda o‘quvchilarga «—» noto‘g‘ri javob, «1» — to‘g‘ri javob ekanligini tushuntirish lozim. O‘qituvchida esa grafik usuldagи javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo‘lishi kerak. Masalan:

21- mart — Navro‘z bayrami.

1- sentabr — Ustozlar va murabbiylar kuni.

1- oktabr — Mustaqillik bayrami.

8- dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

«So‘z top» o‘yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin. O‘qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so‘z aytadi, o‘quvchilar davom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harf bilan tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni aytishi kerak.

Masalan: tulki — ilon — ninachi — it — tipratikan — nortuya — yalqov (panda) — ayiq — qarg‘a — ari va hokazo. Bu usul o‘quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klaster» usuli. Bu usul o‘quvchiga berilgan mavzu bo‘yicha erkin o‘ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o‘quvchi nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat‘i nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o‘quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirib, ular o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. «Klastyer» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o‘quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo‘yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘tkaziladi. Masalan, «O‘lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar» mavzusi.

«Mozaika», ya’ni mayda bo‘laklardan yaxlit ko‘rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo‘laklarga bo‘linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo‘lakchalarni bir butun ko‘rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To‘xtab o‘qish» usuli. O‘qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to‘xtab, o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo‘lishi zarur. Yoki



o‘quvchi matn o‘qish jarayonida to‘xtatilib, nima haqida o‘qiganligi so‘raladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

«Zanjir» usuli. Bu usulni she’r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she’r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo‘llanganda o‘quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she’r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo‘ladi.

«Rasmi rebus» o‘yini. Sinf o‘quvchilar uch guruhgaga bo‘linadilar. Har bir guruhgaga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, it, laylak, ohu, ninachi — non, anor, rediska, chinni gul, arpa — archa.

«Kim tez bajaradi» o‘yini. O‘quvchilar uch guruhgaga bo‘linadilar. Har bir guruhgaga

5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1—2 daqiqada) o‘quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari guruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo‘lib xatosiz bajargan guruh g‘olib hisoblanadi.

«O‘z guruhingni top» o‘yini. O‘quvchilarga rangli buklangan qog‘ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga qog‘ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o‘z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. Mushuk (miyov-miyov). 2. Kuchuk (vov-vov). 3. Xo‘roz (qu-qu-qu-qu). 4. Sigir (mo‘-mo‘). Guruhgaga bo‘linib olganlaridan so‘ng guruhgaga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so‘zlab beradilar.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va osimliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o‘rganishda foydalanish mumkin. Burchak shunindek o‘quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun moddiy baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istagan vaqtida ish olib borishlari mumkin ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanini bo‘lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan o‘quvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo‘ng‘izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv o‘simliklarining barchasi akvarium, shisha banka idishlarga joylashtiriladi. Bog‘ va polizdarda ko‘pincha meva, rezavor meva hamda sabzavod o‘simliklari zararkunandalarning g‘umbak va qurtlari uchraydi. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma’qul. Bunday imkoniyat bo‘lmaganda osimlik va hayvonlarni tabiatshunoslik xonasida yoki sinfda joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug‘ bo‘lishi, deraza ro‘parasiga har xil tokchalarga suv hayvonlari hamda osimliklari bo‘lgan akvariumlarni qo‘yish qulay bo‘ladi. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish ma’qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni hisobga olish mumkinki, baliqlar to‘rburchak idishda yaxshi ko‘rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning kattakichikligiga (o‘lchamiga) va undagi o‘simliklarning soniga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunda yutiladigan va chiqariladigan kislarodning balansi ta’mirlansin. Akvariumda yashovchilarga doimiy parvarish zarur, oziqni zoomagazindan sotib olish mumkin. Baliqlarni ularni shartli refleks hosil qilishi uchun muayyan vaqtda oziqlantirish kerak.

Bolalar termometr bilan o‘lchab, suv haroratini tekshirib borishga o‘rganishlari lozim.

Sudralib yuruvchilar va suvda ham quruqda yasovchilar uchun xilma-xil ko‘rinish va katta kichikliqdagi terrariumlar kiritiladi. Odatdagagi terrarium metalldan yoki yog‘ochdan tayyorlangan yashik bo‘lib, yon va tepa devorlari shisha va to‘rdan iboratdir. Shisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to‘rdan bo‘lishi ham ventilyasiyasini ta’ minlash imkoniyatini beradi.

Jonli tabiat burchagini o‘simlik va hayvonlari uning asosini tashkil qiladi. Unga qarab jihozlar tanlanadi. O‘simlik va hayvonlar tanlovi tabiatshunoslik dasturiga qarab, o‘lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olib belgilanadi. Barcha xona o‘simliklari ularning nomlari va qachon va



qayerdan olingenligi to‘g‘risida ma’lumotlar yozilgan etiketkalar bo‘lishlari zarur. O‘simpliklardan avval shundaylarni tanlash kerakki, ular yordamida namlik, issiqlik, yorug‘lik, suv iste’mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe) nam iqlimga moslangan o‘simpliklarni, tropik o‘simpliklarni (navro‘zgul), yorug‘lik seuvuchchi (xina) va soyaga chidamli (aspidistra) o‘simpliklarni namoyish qilish mumkin bo‘lsin. Keyin shunday o‘simpliklar tanglanadiki, ular masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskansiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o‘tkaziladi.

Maktab o‘quv tajriba maydonchasi bevosita maktab yaqinida bo‘lishi, yer tekis, yaxshi tuproqli, soya tushmaydigan bo‘lishi kerak. Uning atrofini albatta o‘rash kerak bo‘ladi. Maktab tajriba maydonchasi agrotexnika nuqtai nazardan namunali bo‘lsin. Tajriba maydonchasini tashkil qilishda o‘quvchilar o‘tkazadigan mashg‘ulotlar, mehnat qurollarini saqlash uchun kichikroq xona bo‘lishini mo‘ljallash kerak. O‘quv tajriba maydonchasidagi ishlarni butun sinf bilan dars vaqtida o‘tkaziladigan majburiy ishlarga, o‘quvchilarining darsdan tashqari vaqtarda (uy vazifasi yoki yozgi topshiriq tarzida) bajaradigan majburiy ishlarga va yosh tabiatshunoslik to‘garagi a‘zolarining ishlariga ajratish mumkin.

O‘quvchilar kuz davrida daraxt, buta va o‘simpliklar bilan, ular barglari va gullari shakllari hamda ranglarining xilma-xilligi va chiroyliligi bilan, qo‘l bilan ishlatiladigan asboblar (xaskash, zambil) va ular bilan ishlash uslublari bilan tanishadilar. Bahorda birinchi sinf o‘quvchilar bilan o‘quv tajriba maydonchasida amaliy ishlarni o‘tkaziladi. Ularni urug‘larni ekish va ularni parvarish qilish, sug‘orish, o‘toq qilish, tayanch qoziqlarini qoqish qoidalarni bilib oladilar. Birinchi sinf o‘quvchilar urug‘larni ekishga tayyorlaydilar va yerga ekadilar, o‘simpliklarni parvarish qiladilar. O‘quvchilar kuzda o‘quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni vaqtida amal qilinishi kerak bo‘lgan mehnat haftaligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan, urug‘larni yig‘ish va saqlash qoidalari bilan tanishadilar, kuzda tuproqqa ishlov berishga tayyorlaydilar, to‘kilgan barg va shoxlarni yigib oladilar, o‘simplik qoldiqlari va axlatlarni chiqarib tashlaydilar. Katta yoshdagi o‘quvchilar eski tuproqni chopib beradilar. Bahorda o‘quvchilar gul manzarali hamda dukkakli o‘simpliklarning urug‘larini ekishga tayyorlaydilar, buning uchun yirik va sog‘lom urug larni tanglab oladilar ularni ivitadilar va undiradilar (uruglarni tuproqqa ekish) o‘simliklarni o‘stiradilar. Keyin materialni xaskash bilan tekislaydilar. Yerga urug‘lar ekish bilan ustini bir yo‘la ko‘madilar, o‘simliklarni keyingi parvarishini olib boradilar.

O‘quvchilar kuzda xaskash va belkurak bilan ishlashda mehnat xavfsizligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan tanishadilar, maydonchada o‘stirilgan o‘simpliklarning urug‘larini yig‘adilar maydonchani o‘simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, o‘g‘it soladilar, tuproqni ag‘darib chopadilar, ikkinchi sinfdagi o‘qish davrida maktab oldi o‘quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni yakunini chiqaradilar, maktab ko‘rgazmasi uchun materiallar tayyorlaydilar. O‘quvchilar ildizmeva (rediska, lavlagi, sabzi) va bir yillik gul manzarali o‘simpliklarning (kosmeya, astra, itog‘iz, gultojixo‘roz) urug‘larini ekishga tayyorlaydilar. Ko‘chat qalinligini ildiz mevalari ekishga tayyorlaydilar, o‘g‘itlarning ildiz mevalari hosiliga va gul manzarali o‘simpliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha tajriba va kuzatishlar olib boradilar. Ildiz meva va gul manzarali o‘simpliklar urug‘larini yerga ekadilar, tajribalar qo‘yadilar va ekinlarga qaraydilar. Sug‘oradilar, o‘toq va yagona qiladilar ko‘chat o‘tkazadilar.

O‘quvchilar kuz davrida hosilni yig‘adilar va hisobga oladilar, ularni saqlash qoidalari bilan tanishadilar, urug‘lar yig‘adilar, tuproqqa ishlov beradilar, rezavor, buta va mevali daratlarni qishga tayyorlaydilar. Bundan tashqari o‘quvchilar mevali daraxtlarning tanasi hamda asosiy poyasidagi eski po‘stloqlarini olib tashlaydilar, tana atrofiga tuproq tashlaydilar, unga o‘git soladilar va manzarali butalar o‘tkazadilar.

Boshlangich sinf o‘qituvchisi o‘quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qila borib, iqlim sharoitlarini, mактабнинг hududida joylanishini hisobga olishi va barcha masalalarni biologiya o‘quvchisi bilan kelishib olishi lozim. Tajriba yosh tabiatshunosning qishloq xo‘jalik tajribalari va qo‘srimcha amaliy ishlarni bazasidir: chunki u yerda tabiatshunoslik darslarida o‘rganiladigan o‘simpliklar o‘stiradi.



## XULOSA:

Boshlangich sinfdan boshlab o‘z o‘lkalarini, o‘z joylarini o‘rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o‘tkazadilar. Boshlangich matabda o‘qish vaqtida ularda boy aniq material to‘planadi va bu material o‘lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o‘tishi bilan o‘lkashunoslik burchagida boshlangich matabni ilgarigi bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli materiallar to‘planib boradi, undan tabiatshunoslikni o‘qitishda sistemali ravishda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu yosh davr o‘quvchilari tabiatshunoslik bilimlarini xissiy idrok asosida anglashga o‘rgatadi. O‘quvchilarga tizimli tabiatshunoslik bilimlarini berish va ularda tabiatshunoslik asoslari borasidagi jonli mushohada qilish, xissiy idrok negzida tafakkurni qaror toptirish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балтамуратова А.П. Развитие творческой деятельности будущих педагогов начального образования в контексте развивающего обучения Нукус давлат педагогика институти “Fan va jamiyat” ilmiy-uslubiy jurnali 4-son/ 45-47 бетлар, Нукус 2022
2. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi TDPU “Ilmiy axborotlari” jurnali 11-son 2022
3. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi M.Ulug‘bek nomidagi UzMU “UzMU xabarlar” ilmiy jurnali, 1/1 2023 ISSN 2181-7324
4. **Baltamuratova A.P. EFFICIENCY OF IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY EDUCATIONAL TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING.** Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, JIF:7.256–60. Retrieved from <https://www.sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/512> Berlin 10785, Germany 16 January 2023
5. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi faoliyatida pedagogik va ijodiy qobiliyat. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X.  
Miasto Przyszłości Kielce 2022 <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/822/76>
6. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, (2022, November 28) Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7370316>
7. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. «Zamonaviy dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar, Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Respublika Onlay Konferensiya, Attribution 4.0 International (2022). 1(27), 138–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376276>
8. **Baltamuratova A.P.** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish «XXI asr ko‘nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya I-qism. Jizzax shahri 18 noyabr 2022 yil
9. Baltamuratova A.P. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda psixologik-pedagogik fanlar asosida ijodiy faoliyatini ta‘minlash. «Yoshlar ta‘lim-tarbiyasi jarayonda psixologik yetuklikni shakillantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari» Respublika ilmiy amaliy anjumani 725-bet, Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent 2023.
10. Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. (2022). Aniq Va Tabiiy Fanlarni O‘qitish Metodikasini Takomillashtirish Nazariy Bilimlarini Amaliyot Bilan Bog‘lash. Miasto Przyszłości, Impact Factor 9.2. N 29, Pp. 286–289. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/775>



11. Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. (2022). PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHLARI VA MUTAXASSISLIKARINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI Vol. 1 No. 5 (2022):  
INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS  
<https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/909>
12. Балтамуратова А.П. Абдікалиева В.Т. БАСТАУЫШ МЕКТЕПТЕГІ ОҚУШЫЛАРДЫҢ ШЫҒАРМАШЫЛЫҚ ҚАБІЛЕТІН ДАМЫТУ INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7295379>
13. Baltamuratova A.P., Ulug'ova Ch. B. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 [www.oriens.uz](http://oriens.uz) SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(2), Feb., 2023 <https://oriens.uz/uz/journal/article/bolajak-boshlangich-sinf-oqituvchisining-ijodiy-faoliyatini-tashkil-etish/>
14. Baltamuratova A.P. & Raxmatova R.D. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR MILLIY VA XORIJY TAJRIBALAR "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI VOLUME 1, ISSUE 8, 2023. NOVEMBER ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru>

